

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi  
4 bosqich “V” guruh talabasi Adiha,jonov Sardorning

**“BMT TASHKIL TOPISHI TARIXI VA  
O‘ZBEKISTONNIG UNGA A‘ZO BO‘LISHI:  
ZARURAT, VOQEYLIK VA IMKONIYATLAR”  
mavzusidagi**

**REFERATI**

Ilmiy rahbar:

O.Karimov

Andijon - 2016

## REJA

### **Kirish**

1. BMTning vujudga kelishidagi insoniyat tarixi tajribasi, nazariy va amaliy hayot imkoniyatlari

2. Birlashgan millatlar tashkiloti va dunyodagi globallashuv jarayonlaridagi yangicha ijtimoiy fikirlash qoidalarining kirib kelishi

3. O'zbekiston mustaqillikka erishishida amaliy jarayonlarning xalqaro ahamiyati

4. Birlashgan millatlar tashkiloti va Mustaqil O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati mutanosibliigi

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotla**

## **Kirish**

O‘zbekiston konstitutsiyasining birinchi rasmiy so‘zlari muqaddimada yozilgan “Inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e‘lon qilib, ” boshlanadi. So‘zlarning mohiyatiga mazmuniga, tavsiriga e‘tibor berib qaralishi bugun yurtimizda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar, yuksalishlar, faravonlikning negizlari, aosi qaerdaligini yaqqoli ko‘rsatib beradi.

Muqaddimaning birinchi so‘zlaridan boshlab keltirilgan bu ibora, O‘zbekistonning dunyo xamjamiyatiga qay tarzda qo‘shilganini va qanday shartlarni qabul qilganini namoyon etib tarubdi. Bu nomoishkorona dunyoga e‘lon qilingan so‘zlar, jamiyatiimz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni va xayot tarzini ko‘rsatishning eng maqbul o‘lidir. Bu yo‘limiz dunyoga qo‘shilishda uning xayotida ishtirok etishda, voqeyliklarining barchasida o‘z o‘rnini topish va o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishda nima bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Dunyo hamjamiyatida xozirgi kunda o‘zaro birlashmagan davlatlar, xalqlar, jamiyatlarni mavjutligini tasavvur ham qilish mumkin emas. Sodir bo‘layotgan barcha voqea, hodisa, xolatlar barchasi bir biri bilan chambar bog‘liq halqlar o‘rtasida yuz bermoqda. Dunyo yagona uyga, oilaga aylangan, unda mexir oqibat, yaqinlik, o‘zaro birdamlik aloqalari, bir birini qo‘llab quvatlash va elkadoshlik mavjud. Ammo ming afsuski uning ichida insonga mansub tuban illatlar xam o‘z o‘rniga ega, qo‘rolmaslik, baxillik, yashash uchun ayovsiz kurash, sotqinlik va xakazo razolatlardir.

1991-yil 31-sentabr kuni O‘zbekiston mustaqilligini elan qilgan daqiqadan yuoshlab, bizga nisbatan jaxon xamjamiyatining qiziqishi kun sari ortib bordi. Bunda mustaqilligimizni tan olayotgan, biz bilan do‘st tutinishga intilayotgan, aloqa o‘rnatish va xamkorlik qilishga intilayotgan dalatlar va xalqlarning soni tobora ortib borardi. Ammo bunday fursatda do‘st, dushman, niyatlari xolis yoki ganim siftida kelayotganlirni aniqlab olish, ularning niyyati nima ekanligini bilash mushkil jarayonlar bilan davom etdi. SHu jixatdan BMT o‘n yillar davomida shakillantirgan tenglik, erkinlik, fikirlar xilma xilligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash kabi qoidalar va qatiylashtirilgan qoidalar asosida bizning xam unga a‘zo bo‘lish

masalasini hal qildi. Aynan shu jarayon qanday sodir bo'ldi, undan biz nima naf ko'rdik, undagi ishtirokimiz qanday sodir bo'lmoqda, fuqarolarimiz buni qabul qilishda ishtiroklari qay tarzda kechmoqda kabi masalarni ochishga qaratilmoqda.

## **1. BMTning vujudga kelishidagi insoniyat tarixi tajribasi, nazariy va amaliy hayot imkoniyatlari.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizning turli jabhalarida kata o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o‘zgarishlar ayniqsa huquqiy demokratik davlat shakllantirish, dunyoning nufuzli mamlakatlari bilan turli sohalaridagi aloqalarni o‘rnatish, xalqaro tashkilotlar safiga qo‘shilish, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarini hurmat qilishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining haqiqiy tom ma’nodagi xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a’zosiga aylanishi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 18-moddasida inobatga olingan. Bizning davlatimiz xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etar ekan, bu bilan u o‘zining tashqi siyosati strategiyasini mustahkamlab bormoqda. Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan tamoyillar asosida qurilishi yaqin 10 yilliklarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlayotganligidan darak beradi. Jumladan, Konstitutsiyada “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli subektidir. Uning tashqi siyosati suveren davlat, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralar dahlsizligi va buzilshining oldini olish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik printsiplari va xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan tamoyilari va me’yorlaridan kelib chiqadi”<sup>1</sup>.

Mustaqil O‘zbekiston davlati xalqaro hamjamiyatda o‘zini namoyon qilmoqda va uning yondashuvlari hududiy va global miqyosda qarorlar qabul qilishda inobatga olinmoqda. Chunki O‘zbekiston singari yangi mustaqil davlatlarning manfaatlarini hisobga olmasdan turib xalqaro hayotda yuz berayotgan hodisalarni anglash imkoniyatining yo‘qligi ayon bo‘lib qolmoqda. "Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 1992.

muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz"<sup>2</sup>. O'zbekiston uchun dunyo miqyosida keng imkoniyatlar uchun barcha yo'llar ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Albatta biz buni O'zbekistonning o'z kapitalini sarflash nuqtai nazardan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tiborga sazovor bo'lib borayotganligining dalili deb bilamiz".

Bugungi kunda hukumatlararo xalqaro tashkilotning eng samarador tuzilmasi bo'lmish Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida O'zbekiston teng huquqli subekt bo'lib kirdi. Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv jarayoni haqida gapirganimizda, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz."<sup>3</sup>

Dunyoning ko'plab mamlakatlari O'zbekiston Respublikasini xalqaro huquqning to'laqonli subekti sifatida tan oldi. Mamlakatimizning bir qator xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib Kirishi, ular bilan "sherikchilik va hamkorlik", "o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish" bitimlarini imzolashi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar jahon tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarga barham berishda davlatlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi eng samarali vositalarga aylangan. O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqiligini qo'lga kiritish paytidan e'tiboran xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etganligi sababli xalqaro tashkilotlar huquqini bilish xalqaro huquqshunoslar kasbiy mahoratining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Jamiyatni demokratlashtirish jarayoni va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda xalqaro tashkilotlar huquqining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, xalqaro tashkilotlar inson huquqlari, huquq ustuvorligi kabi qadriyatlarni jahon miqyosida yoyish va himoya qilishning muhim vositasidir.

---

<sup>2</sup> I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". -T.: O'zbekiston, 1997. 297-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". -T.: O'zbekiston, 1997. 300-bet.

Bundan tashqari iqtisodiy integratsiya, xalqaro moliyalashtirish mexanizmlari, birinchi navbatda, xalqaro moliya tashkilotlarda mujassam etilgan.

"Xalqaro tashkilotlar huquqi" fanini o'qitishdan maqsad talabalarda umumiy xalqaro tashkilotlar huquqi nazariyasidagi muammolariga bo'lgan qarashlarni chuqurlashtirish va kengaytirish va ularni amaliyotda qo'llanishga o'rgatish. "Xalqaro tashkilotlar huquqi" fanining vazifalari quyidagilardan iborat: magistr'larga xalqaro tashkilotlar haqida umumiy tushuncha berish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi qirralari haqida yaxlit fikrni shakllantirish

Xalqaro tashkilotlar huquqi boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq. Agarda falsafa jamiyat, borliq, ongning ijtimoiy mohiyatini o'rganadigan bo'lsa, mazkur kategoriyaning dialektik-ob'ektiv mohiyatidan kelib chiqqan holda xalqaro tashkilotlar huquqi sohasi rivojlanib boradi.

Xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi aloqani vujudga keltiruvchi asosiy tashkilotlardir. F.F Martens ta'kidlaganidek, "yuqori madaniyatli xalqlar o'zlarini mustaqil qiyosiy tarzlarini saqlab qolishi uchun xalqaro aloqalarga muhtojdirlar". Boshqa davlatlarda harbiy texnika va san'at sohasidagi yutuqlar ortidan bormagan, hamda ushbu yutuqlardan foydalanmagan hukumat, o'z davlatini zarur mudofaa vositalaridan benasib qoldiradi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yovvoyilik holatida bo'lganida xalqaro aloqalar hech bir ma'no kasb etmasdi.<sup>4</sup>

Eramizdan avvalgi VI asrlarda qadimgi Gretsiyada ilk domiy xalqaro birlashmalar tuzilgan edi. Bular shahar yoki jamoalar ittifoqi (masalan, Lakedemin yoki Simmakil Delossi) yoki qabila va shaharlarning diniy -siyosiy ittifoqlari edi (masalan, Delfin - Firmanillarning amfiktioniyasi). Ular kelajakdagi xalqaro tashkilotlarning namunasi bo'lgan. F.F Martens asosli ta'kidlaganidek, ushbu ittifoqlar faqatgina diniy maqsadlarda tashkil etilgan bo'lsalar-da lekin umuman davlatlar o'rtasidagi aloqalarga o'z ta'sirlarini ko'rsatgan: O'zga ijtimoiy faktorlar singari xalqlarni bir-birlariga yaqinlashtirib ularning yakkalikka bo'lgan

---

<sup>4</sup> Мартенс Ф.Ф.Современное международное право цивилизованных народов Т.1 М., 1996 стр.163-164, 167.

intilishlarini yumshatdi.<sup>5</sup>

Xalqaro tashkilotlar rivojlanishida keyingi bosqich xalqaro iqtisodiy va bojxona birlashmalarning tashkil etilishi bo'ldi. Bunday ittifoqlardan birinchisi, butun SHimoliy Germaniyani yovvoyilik holatidan chiqishiga sabab bo'lgan Ganzey savdo ittifoqi-dir. XIX asr boshlarida German bojxona ittifoqi tuziladi.

Ushbu ittifoqqa kirgan barcha davlatlar tovarlarni olib kirish, olib chiqish va tranzit qilishga doir va bir xil qonunlarga bo'ysunishlari shart edi. Barcha bojxona yig'implari umumiy deb tan olinib, ittifoq a'zolari o'rtasida aholi soniga qarab taqsimlangan.

Xalqaro tashkilotlar huquqi bo'yicha mutaxassislar fikricha, ilk hukumatlararo tashkilot bu 1831-yilda tashkil etilgan Reynda kema qatnovi bo'yicha markaziy komissiya bo'lib hisoblanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Er o'lchovi bo'yicha Xalqaro Ittifoq (1864-yil), Butunjahon Telegraf Ittifoqi (1865-yil) Butunjahon Pochta Ittifoqi (1874-yil), Adabiy va Badiiy mulki himoyasi bo'yicha Xalqaro Ittifoq (1886-yil), Temiryo'l tovar aloqalari xalqaro Ittifoqi tashkil etildi. Ushbu barcha tashkilotlar o'zlarining doimiy organlari a'zolari va qarorgohlariga ega bo'lib, ularning vakolatlari o'zlari ixtisoslashgan muammoni muhokamasi bilan chegaralangan edi.

Birinchi jahon urushidan so'ng davlatlar xalqaro xavfsizlik va xalqaro tinchlikni saqlash bo'yicha xalqaro tashkilot tuzishga kirishdilar.

1919-yilda Millatlar Ligasi tashkil etilib, xalqaro tinchlikni saqlash va davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish uning asosiy maqsadi hisoblanar edi. Millatlar Ligasi 1964-yil 18-aprelda o'z faoliyatini tugatdi.

Millatlar Ligasi e'tirof etganidek, har qanday urush "Ligani birday qiziqtiradi" va Liga tinchlikni saqlash uchun barcha chora-tadbirlarni qo'llashi. Liganing xohlagan a'zosi talabi bilan Kengash chaqirilgan. Millatlar Ligasi a'zolari o'rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, nizo Millatlar Ligasi tomonidan, hakamlik sudi yoki Kengash tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan.

Agarda Millatlar Ligasi a'zolaridan birortasi olgan majburiyatlarni buzgan

---

<sup>5</sup> O'sha joyda. 45-bet.



holda urushni keltirib chiqarsa, qolgan barcha a'zolar u bilan barcha savdo va moliyaviy munosabatlarni uzish majburiyatiga ega edilar. Kengash esa mamlakatlar hukumatlariga, Liga majburiyatlariga hurmatni qo'llab-quvvatlab turish uchun mo'ljallangan u yoki bu hajmdagi harbiy kontinent yuborishni taklif etgan.

Millatlar Ligasi Nizomi milliy qurol-yaroqlarni minimumga qadar cheklashni zarur deb tan olardi. Millatlar Ligasi Kengashiga, barcha mamlakatlar geografik o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, qurol-yarog' cheklanishi bo'yicha rejalar ishlab chiqish va tegishli mamlakatlar hukumatlariga taqdim etish taklif etilgan edi.

Mutaxassislar fikricha, Millatlar Ligasi o'zining asosiy vazifasini, ya'ni nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bilan bog'liq vazifasini bajara olmadi. U ikkinchi jahon urushini hamda Yaponiyaning Xitoyga, Italiyaning Efiopiyaga, Germaniyaning Avstriya va CHexoslavakiyaga, Italiyaning Ispaniyaga hujumlarining oldini ololmadi.

## **2. Birlashgan millatlar tashkiloti va dunyodagi globalashuv jarayonlaridagi yangicha ijtimoiy fikirlash qoidalarining kirib kelishi.**

Kuch ishlatmaslik majburiyati barcha davlatlar uchun taalluklidir, chunki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash zaruriyati barcha davlatlarning o'zaro munosabatlarida ushbu tamoyilga rioya qilishlari lozim ekanligini talab kilmokda.

EXXKning YAKunlovchi xujjatida ishtirokchi-davlatlarning o'zaro munosabatlarida «boshqa ipggirokchi-davlatni majbur qilish maqsadida kuch ishlatishning har qanday kurinishlaridan» hamda «har kdnay iqtisodiy majbur etish xatti-harakatlaridan o'zini tiyib turish» bevosita ko'rsatib o'tilgan.

BMT Ustavining 42-47 va 51-moddalarida qurolli kuchlardan qonuniy foydalana olish mumkin bo'lgan holatlar aytib o'tilgan. 41 va 50-moddalarda esa harbiy bo'lmagan kuchlarni qonuniy qo'llash to'g'risida so'z boradi. Ularda «iqtisodiy munosabatlarni, temiryo'l, dengiz, havo, pochta, telegraf, radio yoki aloqaning boshqa vositalarida to'liq yoki qisman o'sish va shuningdek, diplomatik

munosabatlarda o‘zish» choralari sanab o‘tilgan.

BMT Ustavi qurolli kuchlarni qonuniy qo‘llashning faqat ikkita holatini nazarda to‘tadi:

- birinchidan» o‘zini mudofaa qilish maqsadida (52-modda);
- ikkinchidan, tinchlikka xavf tugilganda, tinchlik bo‘zilgan yoki boskinchilik harakati sodir bo‘lganida BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan (39 va 42-moddalar).

O‘zini mudofaa qilish tartibida qurolli kuchlarni ishlatish, agar davlatga qarshi qurolli xujum sodir etilgan holatdagina qonuniy hisoblanadi. BMTning Xavfsizlik Kengashiga keladigan bo‘lsak, agar u nizoni xal etish uchun tavsiya qilingan noharbiy choralarni etarli emas deb hisoblasa, u xolda «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash yoki tiklash uchun zarur bo‘lgan havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlar bilan bunday harakatlarni amalga oshirish vakolatini oladi».

Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishdan yoki kuch bilan taxdid kilishsan voz kechish tamoyili tomonlarni boshqa davlatga qarshi bevosita yoki bilvosita kuch ishlatishni ifodalovchi har qanday harakatlardan o‘zini tiyib turishni anglatadi. Bu erda shuni esda tutmok lozimki, BMT Ustavida (2-modda, 4-bo‘lim) ta‘riflangan «kuch» tushunchasi mazmuni nafaqat qurolli kuchni, balki majburlashing kolgan barcha shakllarini ham ko‘zda to‘tadi.

Davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyili: Davlat chegaralarining daxlsizligi tamoyili davlat milliy xavfsizligining eng muhim asoslaridan birini tashkil qiladi. Mazkur tamoyil Evropada xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Kengashning 1975 yilda qabul qilgan YAKunlovchi hujjatida ta‘riflab berilgan. Unda aytilishicha, «ishtirokchi-davlatlar bir-birlariga tegishli, shuningdek, Evropadagi barcha davlatlar chegaralarini bo‘zilmas deb hisoblaydilar va shuning uchun ular hozir va kelajakda ushbu chegaralarga nisbatan har qanday tajovo‘z qilishdan o‘zlarini tiyadilar».

Ushbu tamoyilni tan olish har qanday hududiy da‘volardan voz kechishni ham anglatadi.

EXXK ishtirokchi-davlatlari Evropa davlatlarining mavjud chegaralarini tan

olishlarini va tasdiqlashlarini izxor qilganlar. Ushbu tan olish xalqaro-huquqiy bo‘lib, ma’lum yuridik okibatlariga ega, xususan uni bekor qilish mumkin emas.

CHegaralar daxlsizligi va bo‘zilmasligi tamoyilining asosiy mazmunini kuyidagi uch element bilan ifodalash mumkin:

- birinchidan, mavjud chegaralarni xalqaro huquqqa muvofiq tarzda yuridik belgilangan deb tan olish;
- ikkinchidan, hozirda va kelajakda dar qanday hududiy talablardan voz kechish;
- uchinchidan, ushbu chegaralarga nisbatan har qanday boshqa tajovo‘zlardan voz kechish.

CHegaralar daxlsizligi tamoyili barcha davlatlarning hududiy ustunligi va yaxlitligini hurmat qilishni ham anglatadi. Ushbu tamoyilga muvofiq davlatlar umumiy chegaralarning, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli chegaralarning bo‘zilmasligini tan oladilar. Ular har qanday davlat hududining ma’lum bir qismi yoki uning butun hududini bosib olishga karatilgan har qanday talab va harakatlardan o‘zlarini tiyish majburiyatini oladilar. Bu alohida olingan davlatlar o‘rtasida nizoli hududlar masalasi bulmaydi degani emas, Biroq; chegaraga daxldor masalalar mo‘zokaralar va xalqaro huquqkd muvofiq tarzda boshqa vositalar yordamida xal etilmogi lozim.

CHegaralar daxlsizligi tamoyili universal xarakter kasb etib, barcha kigyalarda qo‘llanishi lozim. Bu esa o‘z o‘rnida xalqaro tinchlikni va xavfsizlikni mustahkamlaydi. Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili: Davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili BMT Ustavi qabul qilinishi bilan o‘z echimini topgan. Biroq mazkur tamoyilning nomlanishi oxirigacha o‘z echimini topgani yo‘q;. SHuning uchun huquqiy adabiyotlarda hududiy yaxlitlik va hududiy daxlsizlik iboralarini uchratishimiz mumkin.

BMT Ustavi har qanday davlatning siyosiy mustaqilligi va hududiy daxlsizligiga (yaxlitligiga) qarshi kuch ishlatish va kuch bilan taxdid qilishni ta’kiklaydi. 1970 yilgi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada BMT Ustavining 2-modda 4-bo‘limi mazmunini yoritishda bu erda bevosita

hududiy yaxlitlik tamoyilining o‘zi tilga olinmasa-da, uning ko‘pgina elementlari o‘z aksini topgan. Xususan, har bir davlat:

- birinchidan, «boshqa davlatning milliy birligi va hududiy daxlsizligini bo‘zishga karatilgan har qanday harakatlardan o‘zini tiyib turish kerak»;
- ikkinchidan, «davlat hududi Ustav qoidalarini bo‘zish orqali kuch ishlatish natijasi harbiy bosib olish obekti bulmasligi lozim»;
- uchinchidan, «davlat hududi kuch bilan taxdid qilish yoki uni ishlatish natijasida boshqa davlat tomonidan egallab olinish obekti bo‘lishi mumkin emas».

Mazkur tamoyilni rivojlantirishning keyingi boskichi 1975 yilgi EXXKning YAkunlovchi hujjati buldi. Ushbu hujjat hududiy yaxlitlik tamoyilining to‘liq ta‘rifini o‘zida ifodalagan.

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili: Hozirgi zamon xalqaro huquqiga muvofiq, davlatlar o‘z nizolarini tinch yo‘llar bilan xal etishlari lozim.

BMT Ustavining 2-modda 3-bo‘limiga muvofiq «Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a‘zolari o‘zlarining xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostida koldirmaslik uchun tinch yo‘llar bilan xal etadilar, ya’ni mo‘zokaralar, tekshirish utkazish, vositachilik, yarashtirish, arbitraj, sudd ishni kurish, regional organlar yoki kengashlarga murojaat qilish yoki o‘z hohishiga ko‘ra boshqa vositalar yordamida» xal etadilar.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan davlatlar o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan xal etish tamoyili barcha nizoli masalalar xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchlik va xavfsizlik xavf ostida komasligi uchun xalqaro huquqqa mos ravishda tinch usullar bilan xal etilishini belgilab beradi. 1970 yildagi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklarasiyada aytilishicha: «Har bir davlat o‘zining boshqa davlatlar bilan mavjud xalqaro nizolarini, xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostida koldirmaslik uchun tinch yo‘llar bilan xal etadi». O‘zbekiston ushbu tamoyilga ogishmay rioya kilmokda.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili: Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili BMT Ustavining 2-moddasi 7-bo‘limida aks ettirilgan va 1970 yildagi Xalqaro huquq tamoyillari to‘g‘risidagi Deklaratsiya,

EXXKning YAkunlovchi hujjati, davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo‘l kuyib bulmaslik, ularning mustaqilligi va suverenitetini himoya qilish to‘g‘risidagi BMT Rezolyutsiyasi kabi xalqaro hujjatlarda o‘zining yanada aniq bayonini topgan.

BMT Ustavining 2-moddasi 7-bo‘limiga muvofiq tashkilot o‘z moxiyati bo‘yicha har qanday davlatning ichki vakolatiga kiradigan ishlarga aralashish huquqiga ega emas». Biroq davlat hududi doirasida yuz berayotgan ba’zi harakatlar Xavfsizlik Kengashi tomonidan faqat muayyan davlatning ichki ishi emas deb baxolanishi mumkin. Masalan, agar BMT Xavfsizlik Kengashi ma’lum xodisani xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf tugdiradi deb hisoblasa, ushbu harakatga nisbatan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar davlatning ichki ishlariga aralashish deb karalmasligi lozim.

Aralashmaslik konsepsiyasi davlatlar har qanday masalalarni ixtiyoriy ravishda o‘z vakolatlari doirasiga kiritib olishini anglatmaydi. Davlatlarning xalqaro majburiyatlari, shuningdek, ularning BMT Ustavidan kelib chiquvchi majburiyatlari mazkur masalalarni to‘g‘ri xalqaro etishga yondashishda mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Inson huquqlarini hurmat qilish tamoyili: Inson huquqlarini hurmat qilish tamoyili shakllanishi bevosita BMT Ustavining qabul qilinishi bilan bog‘liq Ustavning 1-moddasida Tashkilot a‘zolarining maqsadi sifatida «barcha uchun ularning irqi, jinsi, tili va dinidan qat’iy nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish va hurmat qilishni rivojlantirishda» davlatlar o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida so‘z boradi. Ustavning 55-moddasi muhim ahamiyatga ega. Unga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti:

- birinchidan, aholining yashash darajasi yuksalishiga, to‘liq bandligiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlariga;
- ikkinchidan, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga va rioya etishga ko‘maklashadi.

Bu erda davlatlarning majburiyatlari eng umumiy shaklda bayon qilingan, shuning uchun davlatlar inson huquqlarini hurmat qilish tamoyilining me‘yoriy

mazmunini aniqlashga intilmoqdalar. Bu vazifa 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va 1966 yilda qabul qilingan ikkita pakt Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktlarda to'liq va universal tarzda bajarilgan. Qayd etilgan xalqaro hujjatlar umumiy xarakter kasb etadi, ya'ni inson huquqlari va erkinliklariga barcha davlatlar tomonidan rioya qilinishi lozim.

Inson huquqlari sohasidagi davlatlararo hamkorlikning asosiy maqsadi milliy qonunchilikni bir xil qilish (unifikatsiyalashtirish) emas, balki davlatlar uchun milliy qonunchilikni ishlab chiqishda boshlangich nuqta vazifasini o'tashga xizmat qiluvchi standartlarni yaratishdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini bevosita tartibga solish va himoya qilish avvalgiday har bir davlatning ichki ishi bo'lib qolmoqda. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarning aksariyat qismi bevosita davlat hududida qo'llanishi mumkin emas. Mazkur me'yorlar implementatsiyasi suveren davlatdan muayyan chora va tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi.

Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyili: Har bir xalq o'zining rivojlanish yo'li va shakllarini erkin tanlay olish huquqini so'zsiz hurmat qilish xalqaro munosabatlarning asoslaridan birini tashkil qiladi.

Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyili BMT Ustavi qabul qilingandan so'ng majburiy me'yor sifatida rivojlanmokda. BMTning asosiy maqsadlaridan biri — «davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyili asosida rivoj-lantirish»dir (Ustavning 1-modda, 2-bo'limi). Ushbu maqsad Ustavning boshqa ko'pgina qoidalarida aniqlashtirilgan.

O'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili mustamlaka va tobe xalqlar muam-molarini hal etishda asos bo'lib xizmat qiladi, chunki mazkur tamoyilning subekti davlatlar emas, balki xalqlar va millatlardir.

BMT hujjatlarida o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili me'yoriy mazmunining asosi ifodalab berilgan. Misol uchun, 1970 yilda qabul qilingan Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: «Suveren

va mustaqil davlatning to'zilishi, mustaqil davlatga birladshishi yoki u bilan qo'shilishi, yoki xalq tomonidan erkin belgilangan har qanday siyosiy maqomning o'rnatilishi mazkur xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish shakllari hisoblanadi».

Agar millat mustaqil davlatni yaratsa yoki davlatlar federatsiyasi tarkibiga kirsa, o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqi yo'q ketmaydi. O'z taqdirini o'zi belgilash huquqining subektlari nafaqat tobe davlatlar, balki suveren millat va xalqlar ham sanaladi. Milliy mustaqilikka erishish bilan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi faqat o'z mazmunini o'zgartiradi, bu esa tegishli xalqaro huquqiy me'yorlarda o'z ifodasini topadi.

Davlatlarning xalqaro hamkorlik tamoyili: Davlatlar ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy to'zumidan katyi nazar xalqaro hamkorlik goyasi BMT Ustavini tashkil etuvchi me'yorlar tizimida asosiy hisoblanadi.

Hamkorlik tamoyili ko'pgina xalqaro tashkilotlar Ustavlarida, xalqaro shartnomalarda, ko'p sonli rezolyutsiya va deklaratsiyalarda aks ettirilgan. Misol uchun, BMT Ustavida davlatlar «iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni xalq etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishlari lozim»ligi majburiyati ko'rsatib ugilgan.

Albatta, hamkorlikning aniq, shakli va uning hajmi davlatlarning o'ziga, ularning talab va moddiy zaxiralariga, ichki qonunchilik va ular qabul qilgan xalqaro majburiyatlarga bog'likdir. Biroq, davlat maqsadlarini ifodalovchi huquqiy xuj-jatlar taxlili davlatlar hamkorlik tamoyiliga universal xarakter berishga intilayotganliklarini ko'rsatmokda. Barcha davlatlar BMT tamoyillariga muvofiq harakat qilishlari majburiyati ularga turli xil xalqaro muammolarni echishda o'zaro hamkorlik asosida harakat qilishlari lozimligi majburiyatini yuklamoqda.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili: Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili davlatchilikning ilk bosqichlarida xalqaro-huquqiy odat shakli sifatida - pacta sunt servanda vujudga keldi. Mazkur tamoyil hozirgi vaqtda ko'p sonli ko'p tomonlama va ikki tomon-lama xalqaro shartnomalarda o'z aksini topgan.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyili xalqapo huquq subektlari xatti-harakatini belgilovchi umume'tirof etilgan me'yor sifatida BMT Ustavida qayd etilgan. Ushbu xalqaro hujjat muqaddimasida BMT a'zolari kat'iylik bilan «shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan adolatli va hurmatli munosabatda bo'la olishni ta'minlashga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratish»ni ta'kidlaydilar.

Xalqaro huquqning rivojlanishi xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyilining universal harakterini tasdiqlamokda. Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq; «amaldagi har bir shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy va ular tomonidan vijdonan bajarilishi lozim».

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish tamoyilining harakat doirasi oxirgi yillarda sezilarli kengaydi. Buni kuyidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning ta'rifidan ham bilsak bo'ladi: 1970 yilgi Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya va 1975 yilgi EXXK yakunlovchi hujjati.

### **3. O'zbekiston mustaqillikka erishishida amaliy jarayonlarning xalqaro axamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquqning asosiy prinsiplari umume'tirof etilgan prinsiplari zamonaviy xalqaro huquqning asosiy mohiyatini namoyon etuvchi, ustun bo'lgan universal normalardir. U xalqaro hamjamiyat qabul qiladigan va tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlarda umum e'tirof etilgan normalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu normalar, birinchidan, umumiy tinchlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlab berishning; ikkinchidan, xalqlar ozodligi va mustaqilligini ta'minlab berishning; uchinchidan, davlatlar orasidagi ijobiy aloqalarning; o'zaro umumiy manfaatlarni va ishonchni ta'minlashning huquqiy asosi hisoblanadi. Umum e'tirof etilgan prinsiplar va normalar ahamiyati va o'rnining oshib borishi hozirgi zamonaviy huquqning xususiyatlaridan biridir.

Xalqaro huquqning ko'pgina prinsiplari BMT Ustavining 2-moddasida o'z aksini topgan. 1970 yilda qabul qilingan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi



Deklaratsiyada ushbu prinsiplar kengroq berilgan. Bundan tashqari, BMT Ustavi hamda Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining 1975 yilgi YAkunlovchi aktida ham ular chuqur talqin etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgandan so‘ng, o‘z tashqi siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosat yo‘nalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og‘ishmay amalga oshirila boshlandi. Bu tamoyillar davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga tayanadi.

«O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir»<sup>6</sup> - deb ta’kidlagan edi Prezident Islom Karimov.

Bugungi kunda O‘zbekiston tashqi siyosatida quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- milliy manfaatlarini ustunligida, boshqa davlat manfaatlarini hisobga olish;
- respublika xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlik uchun, ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish tarafdori sifatida harakat qilishi;
- O‘zbekiston hech qanday harbiy bloklarga va ittifoqlarga kirmaydi, shuningdek, munozarali muammolarni kuch yoki kuch orqali tahdid qilish yo‘li bilan hal qilishdan tiyilish;

---

<sup>6</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 50.

- tashqi siyosatning boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda qurilishi;

- o‘z milliy-huquqiy tizimini barpo etayotgan O‘zbekistonning xalqaro huquq me‘yorlarini ichki davlat me‘yorlariga nisbatan ustunligini tan olishi va barcha xalqaro andozalarga rioya qilishi;

- O‘zbekistonning o‘zaro ishonch asosida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatishga va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishga tayyorligi<sup>7</sup>.

Mustahkam xavfsizlik, barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko‘tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar axilligini, xalqlar do‘stligini ta‘minlash, fuqarolar erkinliklari va haq-huquqlarini muhofaza qilish respublikamiz tashqi siyosatining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Bugun hech mubolag‘asiz, g‘urur va iftixor bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o‘tgan qisqa davr ichida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi. O‘zbekistonning jahondagi obro‘-e‘tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo:

- yurtimizda demokratik va bozor iqqisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo‘lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o‘zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishida mujassam bo‘lmoqda;

-bu davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma‘lum bo‘lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o‘z ifodasini topmoqda;

- va nihoyat, bu - mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o‘ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda<sup>8</sup>.

---

<sup>7</sup> «Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (1996 йил 26 декабрь) // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 15-китоб. -Т.: Адолат, 1997. -272 б.

<sup>8</sup> Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, 18

Suverenitet ustuvorligi tamoyili milliy manfaatlar ustuvorligiga tayangan holda xalqaro huquq me'yorlariga amal qilishga mas'uliyat bilan yondoshuv; jahon hamjamiyatiga ochiqlik; boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik; milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishda o'ziga xos va o'ziga mos yo'lni tanlash huquqini anglatadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan respublika uchun bu ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. SHu o'rinda istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov masalaning ana shu jihatiga to'xtalib, "O'zining xalqaro obro'-e'tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zini qaror toptirish uchun ko'p ishlarni qilish, ba'zan esa umuman boshidan boshlashga ham to'g'ri keladi"<sup>9</sup>.

Quyidagilarni uning asosiy huquqlari sirasiga kiritish mumkin: davlatlarning suveren tengligi; mustaqil bo'lish huquqi; o'z xududida hukmronlik qilish; yakka tartibda yoki kollektiv himoyalani huquqi. Davlatning majburiyatlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin: boshqa davlatlar suverenitetini hurmat qilish; boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik; kuch bilan tahdid qilishdan voz kechish; tinchlik va xalqaro xavfsizlikni saqlash; xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash; inson huquqlarini himoya qilish; atrof-muhitni muhofaza etish. Mamlakatimiz tashqi siyosatining tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida"<sup>9</sup>gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaga binoan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, nizolarni tinch, muzokara yo'li bilan hal etish, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro huquqning boshqa davlatlararo tuzilmalariga a'zo bo'lish, shuningdek, davlat va xalqning oliy manfaatlarini, uning

---

мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 56.

<sup>9</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон; миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1993, 50-бет

farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqib bunday ittifoq va tuzilmalardan chiqishi mumkin.

O'zbekiston tashqi siyosiy amaliyoti tahlili uning konstitutsion asoslari quyidagi tamoyillar asosida shakllanganidan dalolat beradi:

- xalqaro huquqning umue'tirof etilgan me'yor va tamoyillar ustivorligi;
- Markaziy Osiyo mintaqasida yadrosiz xududni saqlab turish va kengaytirish;
- harbiy blok va ittifoqlarga kirishdan bosh tortish;
- tashqi siyosatda ochiqlik, mafkuraviy qarashlarga tobe bo'lishdan voz kechish;
- to'liq ishonch asosida ikkitomonlama hamda ko'ptomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish.

Tashqi siyosat mexanizmi yoki boshqacha aytganda, tashqi aloqalar sohasida boshqaruv va davlat hokimiyatini amalga oshirish organlari va usullari tizimi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin rivojlana boshladi.

Tashqi siyosat mexanizmining asosini uni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan prezidentlik va parlament vakolatlari tashkil etildi. Aynan shularning aloqalari va o'zaro munosabati hokimiyatning bo'linishi tamoyilini ifoda etadi.

Tashqi siyosat mexanizmining tashkiliy asoslari davlat hokimiyatining oliy organlari faoliyatida namoyon bo'ladi. Prezident davlat boshlig'i bo'lgani bois, u bu tizimda alohida mavqega ega. Albatta, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'rni va ahamiyati ham beqiyosdir. Bu hol uning davlat hokimiyatining qonunchilik va vakolatli oliy organi sifatidagi vakolatlari bilan belgilanadi.

Ushbu mexanizmning institutsional asosini boshqaruv apparatining maxsus organlari: vazirliklar, davlat qo'mitalari, muassasa va hokazolar tashkil etadi. Ular davlatning tashqi faoliyati, jumladan, yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini

himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan funksional va tarmoqqa oid masalalarni boshqarishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va xalqning oliy manfaatlari hamda ularning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda shaxs huquq va erkinliklari, konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi qonuniyatlariga rioya etishni kafolatlaydi, davlat tashqi siyosiy mexanizmining samarali faoliyat yuritishi, bu borada tegishli siyosatni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun javobgardir.

Prezidentning tashqi siyosatni tashkil etishda asosiy mavqega ega ekani tashqi siyosiy mexanizm faoliyatining izchilligi va samaradorligini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, Prezident ijroiya hokimiyat apparatini shakllantiradi va uni boshqaradi; hokimiyat oliy organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ta'minlaydi; ministrlklar, davlat qo'mitalari va va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tashkil etish va tugatish haqida qaror qabul qiladi hamda bu haqda Oliy Majlis palatalari tasdig'iga tegishli farmonlarni kiritadi. Boshqacha aytganda, Prezident Farmoni bilan tayinlangan ministrklar, davlat maslahatchilari, tashkilot muassasa va xizmatlar rahbarlari bevosita yoki faoliyatining yo'nalishlari qatorida xalqaro munosabatlarning turli jihatlari bilan shug'ullanadi. Ushbu vakolatlar umumlashtirilgan holda hokimiyatning siyosiy va ma'muriy resursini tashkil etadi va Prezidentga davlat tashqi siyosiy mexanizmi faoliyatini samarali boshqarishga imkon yaratadi.

Tashqi siyosiy mexanizmni boshqarishda Prezidentning roli xalqaro huquq me'yorlari bilan ham belgilanadi. Unga ko'ra, Prezident xorijiy davlatlarga tashrif buyuradi, muzokara olib boradi, xalqaro konferensiya, sammit va boshqa anjumanlarda ishtirok etadi, davlat rahbarlari yoki nufuzli xalqaro tashkilotlar faoliyatlarida ma'ruza va bayonotlar bilan qatnashadi, davlat boshliqlari va boshqa mansabdor shaxslar, turli daraja va tarkibdagi delegatsiyalar, jamoatchilik va jamoat tashkilotlari, xususiyl shaxslar hamda ishbilarmonlarning yuqori doiralari vakillarini qabul qiladi.

Prezident tashqi siyosatni amalga oshirilishi bilan bog'liq vaziyatlarni bajaruvchi va tegishli qarorlarni tayyorlovchi vazirliklar hamda muassasalar faoliyatini bevosita boshqaradi. Ayrim hollarda ba'zi qarorlar parlament tomonidan tasdiqlanishi ham mumkin.

Tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ham alohida o'rin tutadi. U, jumladan, davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini himoya qilishga oid chora-atdbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi; davlat idoralarning tabiatni muxofaza qilish, mamlakat va dunyo miqyosidagi yirik ekologik dasturlarning amalga oshirish borasida faoliyatini muvofiqlashtiradi; O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini hukumatlararo shartnoma va kelishuvlarni tuzadi hamda ularning bajarilishini ta'minlaydi; tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida boshqaruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan Bosh vazir xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakilligini ta'minlaydi.

Ushbu tashkilot va muassasalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan tegishli tartib hamda xalqaro huquq me'yorlariga tayangan holda tashqi aloqalar sohasidagi davlat ishlarini boshqaradi. Bundan tashqari, ular muayyan tashqi siyosiy harakat va tadbirlar yuzasidan tegishli hujjatlar va takliflar tayyorlaydi, o'z ixtisosligi doirasida tashqi siyosiy qarorlar jarayonini axborot-tahliliy jihatdan ta'minlanishini amalga oshiradi. Davlat rahbari unga taqdim etilgan hujjatlar, qarorlar loyihalari, ma'lumotnomalar, ma'ruzalar va hokazolar bo'yicha muayyan qarorlar chiqaradi, ularni ma'qullaydi yoki kamchiliklarini tuzatish uchun qaytaradi. Odatda, alohida muassasa vakolati doirasida tashqaridagi masalalargina Prezidentga taqdim etiladi.

Davlat rahbarining mamlakat oliy mansabli vakili sifatidagi siyosiy huquqiy maqomi uning muzokaralarda ishtirok etishi hamda xalqaro shartnomalarni imzolash vakolatini belgilab beradi. Uning bu vakolatlari O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi 93-moddasining 3 va 4-bandlari mustahkamlangan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston respublikasi Prezidenti mamlakatning xalqaro munosabatlaridagi bosh vakili sifatida muzokaralar olib boradi, shartnoma va kelishuvlarni imzolaydi hamda O‘zbekiston o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydi.

Davlat rahbari sifatida Prezident, xalqaro huquq masalalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, maxsus vakolatlarsiz O‘zbekiston nomidan muzokaralar olib borish va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolashga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanishi haqida qaror qabul qilingan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi taklifni Oliy Majlisga kiritadi. SHu bilan birga, Prezident O‘zbekiston Respublikasi nomidan tuzilgan xalqaro shartnomani ratifikatsiyasiz tasdiqlash vakolatiga ham ega. Prezident, shuningdek, ratifikatsiya qilinmaydigan xalqaro shartnomalarga qo‘shilish haqida qaror qabul qiladi.

Oliy Majlisning tashqi siyosat sohasida eng muhim qonunchilik vakolati – xalqaro shartnoma va kelishuvlarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish hisoblanadi. Oliy Majlis vakolatlarining ikkinchi guruhi uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasidagi me’yorlardan kelib chiqadi. Ushbu moddada Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining birgalikda amalga oshiradigan vakolatlarga quyidagilar kiritilgan: O‘zbekiston Respublikasi ichik va tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlari qabul qilish; O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish hamda ularning O‘zbekiston tarkibidan chiqarilishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash; O‘zbekiston Respublikasi chegaralarini o‘zgartish; O‘zbekiston Respublikasiga tajovuz qilingan yoki agressiyadan birgalikda himoyalanihga oid shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi zarur bo‘lgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining urush holati e’lon qilinishi haqidagi farmonini tasdiqlash.

Oliy Majlis tomonidan xalqaro munosabatlarning dolzarb masalalari yuzasidan o‘z nuqtai nazarini murojatnoma va bayonotlar orqali rasman ifoda

etishi xususida bormoqda. 1998 yil 28 avgustida Oliy Majlisning birinchi chaqiriq oʻn ikkinchi sessiyasida Afgʻonistonda harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi munosabati bilan qabul qilgan bayonoti; ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis uchinchi sessiyasida (2000 yil 30 avgust) xalqaro terroristik guruhlarining Oʻzbekiston Respublikasi chegara xududlarining ayrim joylariga suqulib kirgani munosabati bilan terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi birgalikda kurashishga daʼvat etgan Oʻzbekiston fuqarolari, barcha mamlakatlar parlamentlari, jahon hamjamiyatining ilgʻor kuchlari murojaati; 2001 yil 6 dekabrda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ettinchi sessiyasida xalqaro koalitsiya, barcha tinchlikparvar kuchlarning terrorizmga barham berishga qaratilgan saʼy-harakatlari qoʻllab-quvvatlangan Oʻzbekiston xalqiga Murojaatini misol tariqasida keltirish mumkin.

Maʼlumki, mamlakatimizda ikki palatali parlament shakllantirilgandan keyin ham bir talay siyosiy bayonotlar qabul qilindi. Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 13 mayda Andijon shahrida amalga oshirilgan terroristik hatti-harakatlarda deputat va senatorlar munosabati ifoda etilgan “Andijon shahridagi voqealarga doir” Qarori, Qarshidagi “Xonobod” aerodromidan AQSH harbiy kuchlari kontingentining chiqarilishi bilan bogʻliq masala yuzasidan Oliy Majlis Senatining Bayonoti shular jumlasidandir.

#### **4. Birlashgan millatlar tashkiloti va Mustaqil Oʻzbekistonning ichki va tashqi siyosati mutanosibli.**

Oʻzbekiston Respublikasi istiqbolga erishgandan soʻng, oʻz tashqi siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosat yoʻnalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor



yoʻnalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda ogʻishmay amalga oshirila boshlandi. Bu tamoyillar davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan qoidalariga tayanadi.

«Oʻzbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan koʻp tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va gʻoyat muhim vositasidir»<sup>10</sup> - deb taʼkidlagan edi Prezident Islom Karimov.

Bugungi kunda Oʻzbekiston tashqi siyosatida quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- milliy manfaatlarini ustunligida, boshqa davlat manfaatlarini hisobga olish;
- respublika xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlik uchun, ziddiyatlarni tinch yoʻl bilan hal qilish tarafdori sifatida harakat qilishi;

- Oʻzbekiston hech qanday harbiy bloklarga va ittifoqlarga kirmaydi, shuningdek, munozarali muammolarni kuch yoki kuch orqali tahdid qilish yoʻli bilan hal qilishdan tiyilish;

- tashqi siyosatning boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, teng huquqlilik va oʻzaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda qurilishi;

- oʻz milliy-huquqiy tizimini barpo etayotgan Oʻzbekistonning xalqaro huquq meʼyorlarini ichki davlat meʼyorlariga nisbatan ustunligini tan olishi va barcha xalqaro andozalarga rioya qilishi;

- Oʻzbekistonning oʻzaro ishonch asosida ikki tomonlama va koʻp tomonlama tashqi aloqalarni oʻrnatishga va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishga tayyorligi<sup>11</sup>.

---

<sup>10</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 50.

<sup>11</sup> «Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (1996 йил 26 декабрь) // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 15-китоб. -Т.: Адолат, 1997. -272 б.

Mustahkam xavfsizlik, barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar axilligini, xalqlar do'stligini ta'minlash, fuqarolar erkinliklari va haq-huquqlarini muhofaza qilish respublikamiz tashqi siyosatining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Bugun hech mubolag'asiz, g'urur va iftixor bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa davr ichida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi. O'zbekistonning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo:

- yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda, ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda;

-bu - davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o'z ifodasini topmoqda;

- va nihoyat, bu - mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o'ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>12</sup>.

Ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish jarayonida jahon hamjamiyati bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun tashqi siyosiy faoliyatning milliy mexanizmlari yaratildi. 1944 yilda tashkil etilgan respublika Tashqi ishlar vazirligi faoliyati tubdan isloh qilindi. 1992 yilda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, 1991 yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasini malakali milliy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi

---

<sup>12</sup> Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б. 56.

«CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998), «O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi (2000), «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi (1996), «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi (1995) Qonunlar, shuningdek, Konsullik ustavi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasini, O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi (1997) kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Konstitutsiyaga binoan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, nizolarni tinch, muzokara yo'li bilan hal etish, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro huquqning boshqa davlatlararo tuzilmalariga a'zo bo'lish, shuningdek, davlat va xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqib bunday ittifoq va tuzilmalardan chiqishi mumkin.

YUqorida zikr etilgan tamoyil va me'yorlar xalqaro huquqning asosini tashkil etadi. Ular tabiati jihatidan universal, umume'tirof etilgan va imperativ tamoyillardir. Bu ularning xalqaro hayotdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi hamda BMT Ustavida majburiy huquqiy me'yor sifatida e'tirof etiladi. SHu bois xalqaro huquqning boshqa tamoyillari va xalqaro huquqning boshqa tamoyillari va xalqaro shartnomalar ushbu majburiy me'yorlarga zid kelmasligi kerak.

SHuningdek, xalqaro huquq me'yor va tamoyillariga amal qilish har qanday mamlakat tashqi siyosiy imkoniyatlarini kuchaytiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining pishiq-puxta o'ylangan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan tashqi siyosati mamlakatimizning xalqaro munosabatlar tizimiga uyg'unlashishi jahon xo'jalik aloqalari, yalpi xavfsizlikning global va mintaqaviy tizimlariga integratsiyalashishiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining asosiy ichki masalalarini hal etish, tashqi siyosatda mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilishga tayyor, ochiq va tinchliksevar mamlakat timsolini shakllantiradi.

O'zbekiston tashqi siyosiy amaliyoti tahlili uning konstitutsion asoslari quyidagi tamoyillar asosida shakllanganidan dalolat beradi:

- xalqaro huquqning umue'tirof etilgan me'yor va tamoyillar ustivorligi;
- Markaziy Osiyo mintaqasida yadrosiz xududni saqlab turish va kengaytirish;
- harbiy blok va ittifoqlarga kirishdan bosh tortish;
- tashqi siyosatda ochiqlik, mafkuraviy qarashlarga tobe bo'lishdan voz kechish;
- to'liq ishonch asosida ikkitomonlama hamda ko'ptomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish.

Tashqi siyosat mexanizmi yoki boshqacha aytganda, tashqi aloqalar sohasida boshqaruv va davlat hokimiyatini amalga oshirish organlari va usullari tizimi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin rivojlana boshladi.

Tashqi siyosat mexanizmining asosini uni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan prezidentlik va parlament vakolatlari tashkil etildi. Aynan shularning aloqalari va o'zaro munosabati hokimiyatning bo'linishi tamoyilini ifoda etadi.

Tashqi siyosat mexanizmining tashkiliy asoslari davlat hokimiyatining oliy organlari faoliyatida namoyon bo'ladi. Prezident davlat boshlig'i bo'lgani bois, u bu tizimda alohida mavqega ega. Albatta, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'rni va ahamiyati ham beqiyosdir. Bu hol uning davlat hokimiyatining qonunchilik va vakolatli oliy organi sifatidagi vakolatlari bilan belgilanadi.

### **Xulosa.**

Tashqi siyosiy mexanizmni boshqarishda Prezidentning roli xalqaro huquq me'yorlari bilan ham belgilanadi. Unga ko'ra, Prezident xorijiy davlatlarga tashrif buyuradi, muzokara olib boradi, xalqaro konferensiya, sammit va boshqa anjumanlarda ishtirok etadi, davlat rahbarlari yoki nufuzli xalqaro tashkilotlar faoliyatlarida ma'ruza va bayonotlar bilan qatnashadi, davlat boshliqlari va boshqa

mansabdor shaxslar, turli daraja va tarkibdagi delegatsiyalar, jamoatchilik va jamoat tashkilotlari, xususiy shaxslar hamda ishbilarmonlarning yuqori doiralari vakillarini qabul qiladi.

Prezident tashqi siyosatni amalga oshirilishi bilan bog'liq vaziyatlarni bajaruvchi va tegishli qarorlarni tayyorlovchi vazirliklar hamda muassasalar faoliyatini bevosita boshqaradi. Ayrim hollarda ba'zi qarorlar parlament tomonidan tasdiqlanishi ham mumkin.

Tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ham alohida o'rin tutadi. U, jumladan, davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini himoya qilishga oid chora-atdbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi; davlat idoralarning tabiatni muxofaza qilish, mamlakat va dunyo miqyosidagi yirik ekologik dasturlarning amalga oshirish borasida faoliyatini muvofiqlashtiradi; O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini hukumatlararo shartnoma va kelishuvlarni tuzadi hamda ularning bajarilishini ta'minlaydi; tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohalarida boshqaruvni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan Bosh vazir xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakilligini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: O'zbekiston, 2011. 40b.
  2. «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarini boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. -1992. №9, 349-modda.
  3. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1995. №12, – 262-modda.
  4. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. №2, – 35-modda.
  5. «O'zbekiston Respublikasining idoralararo xalqaro shartnomalarini tuzish, amalga oshirish, to'xtatib qo'yish, to'xtatish va denonsatsiya qilish tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 1998. 12 dekabr.
- 
1. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. –T.: O'zbekiston, 2008. - 386 b.
  2. Karimov I. A. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.

3. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: O‘zbekiston sharoitida uni bartiraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009. - 56 b.

### **O‘quv qo‘llanma, monografiyalar**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Asosiy omillar. Toshkent. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. 2001. –368 b.

2. Bolalarni himoya qilish. Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma. –T.: Arnaprint. 2006. 208-b.

3. Inson huquqlari: Parlament a‘zolari uchun qo‘llanma./O‘zbekcha nashr mas’ul muharriri A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2007. – 256 b.

4. Lukashuk I.L., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. Darslik. – T.: Adolat, 2006. –424 b.